

OLIV TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISH – USTUVOR VAZIFA

D.Sh.Xodjayeva

Qo'qon davlat pedagogika instituti rektori

“Taraqqiyotga erishish uchun biz raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidani borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda”

Sh.M.Mirziyoyev

Raqamlashtirish ta'lim va boshqaruv uchun yangi imkoniyatlar yaratib, ma'lumotlar yig'ish va tahlil qilish, o'zaro hamkorlik va muloqot qilishni osonlashtirdi. Raqamlashtirishning afzalliklari samaradorlikni oshirish, talabalar faolligini oshirish, shaxsga qaratilgan ta'lim va yangi o'qitish usullaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, raqamlashtirish universitetlarni, o'quv dasturlarini, professor-o'qituvchilarni, xodimlarni va resurslarni boshqarishni osonlashtiradi.

Raqamlashtirishning asosiy afzalliklaridan biri bu talabalarning faolligini oshirish imkoniyatlaridir. Onlayn ta'lim platformalari, ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalar kabi raqamli vositalardan foydalangan holda universitetlar o'quvchilarni motivatsiya va yo'lda ushlab turadigan interaktiv hamda qiziqarli ta'lim tajribalarini yaratishi mumkin. Shuningdek, raqamlashtirish universitetlarga o'yin va virtual haqiqat kabi yangi o'qitish usullaridan foydalanish imkonini beradi. Bu usullardan talabalarga murakkab tushunchalar va nazariyalarni tushunishni osonlashtiradigan interaktiv ta'lim tajribasini yaratish uchun foydalanish mumkin.

Talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini oshirish, ularda zarur kompetensiyalarni shakllantirish orqali ishga joylashish ko'rsatkichlarini ko'paytirish hamda turli vositalar orqali ma'lumotlarni yetkazish va tushuntirish usullarini qo'llagan universitetlar nufuzi oshishi hamda ularda mazkur imkoniyatlar orqali qo'shimcha foyda olishi uchun shart-sharoitlar yaratilishi orqali boshqalarga nisabatan ustunlik shakllanadi.

Ta'kidlash kerakki, hozirgi vaqtda talabalar oldingilarga qaraganda nihoyatda farq qiladi. Endilikda ularning zamonaviy talablari va ehtiyojlari mavjud bo'lib, zamonaviy oliy ta'lim xizmatini ko'rsatuvchilar ularga munosib bo'lishlari lozim. Bugungi kunga kelib, zamonning asosiy talabiga ko'ra ta'lim tashkilotlari, ayniqsa oliy ta'lim tashkilotlari o'z faoliyatini rivojlantirishda quyidagi kabi yangi texnologiyalarga tayanishi lozim: moslashuvchan o'qitish, sun'iy intellekt, UX-dizayn, virtual yoki kibermakon, kengaytirilgan voqelik.

Shu o'rinda, oliy ta'lim tashkilotlari bosiqma-bosqich “Universitet 4.0”, ayrim hollarda “raqamli universitet” yoki “aqlli universitet” deya tavsiflanuvchi konsepsiyaga o'tishi zarur.

Demak, zamonaviy raqamli universitet talabalarga va o'qituvchilarga o'qitish jarayonini va kommunikatsiyalarni tashkillashtirish, byurokratiyadan xoli avtomatlashtirilgan raqamli qayd va tahlil qilish, individual ta'lim trayektoriyalarini savodli tuzish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarga tezkorlik bilan munosabat bildirishga yordam beradigan qulay imkoniyatlar va xizmatlar taqdim qilishi lozim.

Mohiyatan, zamonaviy universitetning barcha bog'liq jarayonlari raqamli texnologiyalar asosida barpo qilinishi lozim. Bu abituriyentlar bilan ishlash, o'quv jarayoni va ta'lim sifatining tahlilidan boshlab bitiruvchilarning ishga joylashishi monitoringi va ishda ko'tarilish bilan tugaydigan katta hajmdagi ma'lumotlarni boshqarishga o'tishni talab qiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda tizimli va izchil ravishda olib borilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar o'z natijasini ko'rsatmoqda, universitetlarimiz akademik va moliyaviy mustaqillikka erishdi, o'zining maqsad va vazifalarini belgilab, zamon talablariga moslashish hamda bugungi kun va kelajak uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash imkoniyatiga egadir. Amalga oshirilayotgan islohotlarning shu asnoda davom ettirilishi, ta'lim tashkilotlari tomonidan qabul qilingan qonun va qonunosti hujjatlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ko'rsatib o'tilgan oliy ta'lim tizimidagi ustuvor vazifalar ijrosi sifatli ta'minlanishi mamlakatimizda ta'limning yuqori cho'qqilarga chiqishiga va eng asosiysi yoshlarimiz xalqaro miqyosda raqobatbardosh bo'la oladigan yuqori malakali kadr bo'lib yetishishiga xizmat qiladi.

Shuni nazarda tutib Qo'qon davlat pedagogika instituti jamoasi ham Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasida belgilab berilgan me'yoriy tartiblardan kelib chiqib yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash vazifasini o'z faoliyatining bosh mezoni qilib belgilagan.

Institutda ta'lim va tarbiya jarayonlari amaldagi dasturlar va zamonaviy uslubiy texnologiyalar yordamida nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirgan holda olib borilmoqda.

Mazkur anjuman ishtirokchilari tomonidan ilgari surilgan muammolarning yechimlari ham, albatta, ta'limni raqamlashtirish hamda respublika Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasida belgilab berilgan ustivor vazifalarni hal etishga xizmat qilishiga ishonamiz.